

ERKIN VOHIDOV-HOZIRGI ZAMON O'ZBEK ADABIYOTINING YIRIK NAMOYANDASI

Raupova Sevara Abdurazoqovna

tarbiyachi pedagog

*Jizzax viloyati Jizzax shahar Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari agentligi
tizimidagi Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov ijodining o'ziga xos jihatlari, shoirning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni xususida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: doston, muharrir, adabiy-falsafiy to'plam, haqgo'y va bedor inson, she'riy drama

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1936-yilning 28-dekabrida Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tavallud topgan. Vohidovlar oilasi 1945-yilda poytaxt Toshkentga ko'chib keldi. Erkinjon avval o'rta maktabda, so'ng hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida ta'lif oladi. 1960-yilda o'qishni bitirgach, nashriyotlarda muharrir, bosh muharrir, direktor lavozimlarida ishlaydi, yangi tashkil qilingan «Yoshlik» jurnalining oyoqqa turishiga rahbarlik qiladi. Erkin Vohidov dastlabki she'rlarini maktabda o'qib yurgan paytidayoq e'lon qila boshlagan, birinchi she'riy to'plami esa «Tong nafasi» nomi bilan 1961-yilda chop etilgandi. Shundan buyon ijodkorning qirqdan ziyod kitobi o'quvchilarga tortiq etildi. Uning she'rlaridan tashqari «Palatkada yozilgan doston», «Ruhlar isyoni», «Istanbul fojiasi» singari dostonlari, «Donishqishloq latifalari» hajviy turkumi, «Oltin devor» komediysi, «Shoiru she'ru shuur» nomli adabiy-falsafiy to'plami XX asr o'zbek adabiyoti rivojiga katta hissa bo'lib qo'shilgan. Erkin Vohidov dunyo she'riyatining yorqin vakillari S. Yesenin, A. Blok, L. Ukrainka, R. Hamzatov singari shoirlarning ko'plab asarlarini ona tilimizga tarjima

qilgan. Erkin Vohidov tomonidan ulug' nemis mutafakkiri Gyotening «Faust» asari o'zbek tiliga yuksak mahorat bilan o'girilishi esa (1974-yilda) nafaqat adabiyotimiz, balki madaniya-timiz tarixida ham muhim voqeа bo'lib qoladi. Uning "Kelajakka maktub" (1983), "Yaxshidir achchiq haqiqat" (1992) to'plamlariga kirgan she'rлarida haqgo'y va bedor insonni kamol toptirish g'oyasi yetakchilk qiladi. Shoирning "Orzu chashmasi" (1964), "Nido" (1964), "Palatkada yozilgan doston" (1966), "Quyosh maskani" (1972), "Ruhlar isyonи" (1980), "Ko'hinur" (1982) kabi liro-epik asarlari, "Oltin devor" va "Istanbul fojeasi" kabi she'riy dramalari katta ijodiy mehnat mahsuli sifatida xalqimizning ko'ngil mulkiga aylangan. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov adabiyotimiz va ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlарimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan asarlari, shuningdek, mustaqilligimizni yanada mustahkamlash yo'lidagi faol xizmatlari uchun "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi. Darhaqiqat, Erkin Vohidov o'zining butun faoliyati va ijodini xalqimiz orzu-o'ylarini ifodalash, millatimiz taqdiriga daxldor muammolarni dadil ko'tarib chiqish, kishilarimiz madaniy-estetik saviyasini yuksaltirishdek ezgu maqsadlarga yo'naltirgandir. Bu jihatdan shoирning 1968-yilda yozilgan «O'zbegim» qasidasi alohida e'tiborga molik. E.Vohidov badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qildi. U qaysi janrga qo'l urmasin hamisha insonlar dard-u qayg'usi, armonlari, quvonchlarini his etdi. Xalq qalbini ma'naviyat nurlari bilan yoritishni, dardiga malham bo'lishni diliga tugdi. Shoир haqiqatga hamisha tik qaragan holda chinakam vatanparvarlik g'oyalarini, insoniy kechinmalarni turfa ranglarda ifoda etdi. Ustoz shoirni dramaturqlar safiga qo'shgan va mashhur qilgan sahna asari "Oltin devor" komediyasidir. Mazkur komediya 1970 yili ilk bor atoqli rejissyor, O'zbekiston xalq artisti Toshxo'ja Xo'jayev tomonidan O'zbek milliy akademik drama teatrida sahnalashtirildi. Qariyb, yarim asr muqaddam sahna yuzini ko'rgan ushbu asar necha yuz martalab o'ynalib, xalqimizga yod bo'lib ketsa-da, hali-hanuz televide niye orqali namoyish etilganda, tomoshabinni ekranga "mixlab" qo'yadi, desak mubolag'a bo'lmas. Oradan o'n yil o'tib, Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri repertuarida adibning "Istanbul fojiasi" she'riy dramasi paydo bo'ldi. Bu murakkab asarni rejissyor Ne'mat

Pardayev juz'iy o'zgarishlar bilan sahnaga olib chiqdi. Spektaklda muhabbat, nafrat, sadoqat, xiyonat singari insoniy tuyg'ular Vatan tuyg'usi, ona yurt sog'inchi bilan mushtarak holda, ham ijtimoiy, ham lirik-romantik, ham psixologik kontrast bo'yoqlarda talqin qilinadi. Ayniqsa, o'z yurtidan uzoqda, darbadar, muhojir bo'lib kun kechirayotgan kimsalarning ayanchli qismati va iztiroblarini lo'nda, yirik badiiy lavhalarda ifoda etishga jiddiy ahamiyat berilgani sezilib turadi. Bunda asar qahramonlarini gavdalantirgan iqtidorli san'atkorlar R. Mamataliyev, T. Ergashev, G. Ravshanova va boshqalarning ijodiy izlanishi samarali bo'lgan. Mazkur asar 1988 yili O'zbek milliy akademik drama teatrida rejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Nosir Otaboyev tomonidan sahnalashtirilib, ko'p yillar namoyish etildi.

"Nido" dostonini muallif Ikkinchiji jahon urushida halok bo'lgan otasiga bag'ishlagan. Xususan, asarda Vohidov otasi yana uch askar bilan dushman hududiga razvedkaga borib, halok bo'lgani haqida so'z yuritadi. Tanqidchilar va o'quvchilar tomonidan yuqori baholangan ushbu doston Vohidovga shuhrat olib keldi. Doston ko'p sonli o'zbek tilidagi adabiyot darsliklaridan o'rinni olgan. "Nido" dostoni 1964-yilda yozilgan. 1965-yilda "Nido" she'riy to'plami chop etilgan. Dostonga urush va tinchlik masalasi asos qilib olingan. E.Vohidovning ushbu liro-epik dostonida harbiy vatanparvarlik, otalar jasorati g'oyasi ilgari surilgan. "Nido" dostoni Ikkinchiji jahon urushi va u olib kelgan kulfatlar, u yetkazgan jarohatlar haqidadur.

Urush, Noming o'chsin jahonda,

Sen tufayli xonadonda ota nomli buyuk shodlik kam.

Doston avtobiografik xarakterga ega. Asar yigirma yil avval urushda halok bo'lgan otasini xotirlayotgan farzandning iztiroblari bilan boshlanadi:

Otajon!

Men axir qutlug' bu so'zni

Yigirma yil olmadim tilga,

Yigirma yil saqladim dilda, Armonli o'g'lingiz tinglaydi sizni,

So'ylang eshitaman.

E.Vohidov iste'dodi yorqin namoyon bo'lgan asarlar orasida 1979-yilda yaratilgan «Ruhlar isyoni» dostoni yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Nazrul Islom XX asr boshlarida she'riyatga chaqindek yaraqlab, momaqaldiroqdek gulduros bilan kirib kelgan va Kunchiqish poeziyasi taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan isyonkor shoir edi. U da'vator she'rlari bilan butun Hindistonni larzaga solgan, iste'dodi va hayotini vatani ozodligi, xalqlar birdamligi, erki va baxti yo'lida fido etgan dovyurak shoirdir. Bosqinchilar va ularning mahalliy yaloqxo'rлari qilgan adoqsiz tazyiq va qiyonoqlar hali o'ttiz beshga ham kirmagan isyonkor va bo'ysunmas shoirni ayni ijodi qaynagan paytda aqldan ozdiradi. Oradan yillar o'tdi, mustamlakachilar shoirning vatanidan quvildi. Mamlakat mustaqillikka erishgach, bir vaqtlar tahqirlangan, jabrlangan shoir qadr topadi, el ardog'iga sazovor bo'ladi. Ammo endi u bularni bilmas, chunki uni aqlidan ayirgan edilar. Nazrul Islom yurtidagi o'zgarishlarni sezmay, shu ahvolda yana qirq yil yashaydi. Dostonda Nazrul Islom fojiy qismatini, shoirning iste'dod va jasorati unga qanchalar qimmatga tushganini, qalbidagi alam-iztirobu tug'yonlarni butun keskinligi bilan tasvirlanadi. Ayni vaqtda, muallif Nazrul Islom hayoti va qismatini ko'rsatish asnosida o'zini qiy nab kelgan armonli o'ylaru ko'ngil dardlarini ifoda etadi. Doston haqsizlik vaadolat, istibdod va erk orasidagi mangu kurashda iste'dod egasining o'rni haqidagi falsafiy mushohadalar bilan boshlanadi. Chin iste'dod egasining tabiat yaralishdanadolatsizlik, nohaqlik, istibdodga qarshi isyondir. Dostonda faqat Nazrul Islom qismatigina tasvirlanmaydi, balki yo'l-yo'lakay shoir qismatiga muvoziy keladigan turli rivoyatlar ham keltiriladi. Bular bilan tanishgan o'qirman muallifning maqsadi faqat bengal shoirining hayoti, bir zamonlar Hindistonda kechgan voqealar, qadim rivoyatlarni aytib berishdan iborat emasligini, bu tasvirlarning chuqur tagma' nosi borligini his etib turadi. Asardagi tasvirlar ota yurtning sovet istibdodi yillaridagi kechmishi, Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi asl millat o'g'lonlarining yurt ozodligi yo'lidagi kurashlari va ular o'z hayotlarini haq yo'liga tikkanlarini yodga soladi. «Ruhlar isyoni» dostoni tasvir yo'sini va ifoda shakliga ko'ra betakror asardir. Doston xilma-xil she'riy shakllar, ritmik birliklar, hissiy ifodalar, hayotiy lavhalar, rivoyatlar, shartli ramziy tasvirlarning nazokatli uyg'unlashuvidan paydo bo'lgan. Shu

xildagi rang-baranglik doston asosidagi hayotiy va badiiy haqiqatni hamda muallifning ko‘nglidagi fikr-tuyg‘ularni butun nozik tovlanishlari bilan ifodalashga xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Erkin Vohidov yuqorida keltirilgani kabi serqirra ijodkor, ko‘p yillar davomida yosh ijodkorlar uchun she’rlari va dramalari va, umuman, qoldirgan adabiy-badiiy asarlarlari ijod maktabi sifatida qadrlanishiga ishonamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Vohidov E. "Tarjimai holim" maqolasi. Toshkent."Yoshlik" jurnali. 10-son. 1992.
- 2.Vohidov E. "Qalb sadoqati" .5-jild. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2018.
- 3.Vohidov E. "Dostonlar". Toshkent.G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976.
- 4.E.Vohidov. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2016.